



THE JOURNEY OF FRENCH SCHOLAR ROBERT GAUTHIOT TO BUKHARA-I SHARIF: SCIENTIFIC OBJECTIVES AND ETHNOGRAPHIC OBSERVATIONS

Oltinoy Masaliyevna Masaliyeva

Doctor of Historical Sciences (DSc)

Uzbekistan State World Languages University

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Emirate of Bukhara, koshbegi Mirza Nasrullahbiy, Robert Gauthiot, French Oriental Studies, Yaghnob, Sogdian language, ethnographers, Central Asian travelogues.

Received: 23.05.26

Accepted: 24.05.26

Published: 25.05.26

Abstract: This article analyzes the scientific expedition to the Emirate of Bukhara by Robert Gauthiot, a prominent French Orientalist, linguist, and traveler who lived and worked in the early 20th century. The study outlines Gauthiot's travel itinerary and explores his perspectives on the socio-political life, architecture, and linguistics of Bukhara. Special emphasis is placed on the scholar's linguistic research conducted in the Zarafshan Oasis and the Yaghnob Valley, as well as his significant contribution to the study of the descendants of the Sogdian language. Furthermore, based on archival documentation – specifically, a letter dated September 16 from the Russian Imperial Political Agency addressed to Mirza Nasrullahbiy Koshbegi – the article demonstrates that every step Robert Gauthiot took toward the strategically vital Pamir borders of Bukhara was closely monitored by the local administration.

FRANSIZ OLIMI ROBERT GAUTHIOTNING BUXOROI SHARIFGA SAYOHATI: ILMYIY MAQSADLAR VA ETNOGRAFIK KUZATISHLAR

Oltinoy Masaliyevna Masaliyeva

Tarix fanlari doktori (DSc)

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, Buxoro Qo'shbegisi Mirzo Nasrullohbiy, Robert

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asr boshlarida yashab ijod qilgan atoqli fransuz

Gauthiot, fransuz sharqshunosligi, Yag‘nob, sug‘d tili, etnograflar, Markaziy Osiyo sayohatnomalari.

sharqshunosi, tilshunosi va sayyohi Robert Gauthiotning Buxoro amirligiga qilgan ilmiy sayohati tahlil qilinadi. Tadqiqotda Gauthiotning sayohat yo‘nalishi, uning Buxoro ijtimoiy-siyosiy hayoti, me‘morchiligi va tilshunosligiga doir qarashlari bayon etilgan. Ayniqsa, olimning Zarafshon vohasi va Yag‘nob vodiysida olib borgan lingvistik izlanishlari hamda sug‘d tili vorislarini o‘rganishdagi hissasi ochib beriladi. Shuningdek, arxiv hujjati yani Rossiya imperatorlik siyosiy agentligining Mirzo Nasrullohbiy Qo‘shbegiga yo‘llagan 16 sentyabrdagi maktubi asosida Robert Gauthiot Buxorodagi strategik muhim bo‘lgan Pomir chegaralariga yaqinlashgan har bir qadami mahalliy ma‘muriyat tomonidan kuzatilgani ko‘rsatilgan.

ПУТЕШЕСТВИЕ ФРАНЦУЗСКОГО УЧЁНОГО РОБЕРА ГОТЮ В БУХАРУ-И-ШАРИФ: НАУЧНЫЕ ЦЕЛИ И ЭТНОГРАФИЧЕСКИЕ НАБЛЮДЕНИЯ

Олтиной Масалиевна Масалиева

Доктор исторических наук (DSc)

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Бухарский эмират, кушбеги Бухары Мирзо Насруллахбий, Роберт Готью, французское востоковедение, Ягноб, согдийский язык, этнографы, путевые заметки о Центральной Азии.

Аннотация: В данной статье анализируется научная экспедиция в Бухарский эмират известного французского востоковеда, лингвиста и путешественника Роберт Готью, жившего и творившего в начале XX века. В исследовании излагаются маршрут путешествия Роберт Готью, его взгляды на общественно-политическую жизнь, архитектуру и лингвистику Бухары. Особое внимание уделяется лингвистическим изысканиям ученого в Зарафшанском оазисе и Ягнобской долине, а также его вкладу в изучение приемников согдийского языка. Кроме того, на основе архивного документа – письма Российского императорского политического агентства бухарскому кушбеги Мирзо Насруллахбию от 16 сентября –показывается, что каждый шаг Роберт Готью по направлению к стратегически важным памирским границам Бухары находился под строгим наблюдением местной администрации.

Kirish. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan Buxoro amirligi Yevropa ilmiy doiralari uchun strategik va madaniy tadqiqotlar markaziga aylandi. Rossiya imperiyasi protektoratiga aylangan Buxoro o'zining qadimiy islomiy an'analari va sirli sharqona hayoti bilan fransuz tadqiqotchilarini ham o'ziga jalb etdi. Ushbu davrda Buxoroga kelgan va o'lka tarixi haqida qimmatli ma'lumotlar qoldirgan olimlardan biri – Robert Gauthiot edi.

R. Gauthiot (1876–1916) nafaqat sayyoh, balki yirik tilshunos va hind-yevropa tillari bo'yicha mutaxassis bo'lib, uning Buxoro safari sof ilmiy xarakterga ega edi. Uning 1913-1914 yillardagi sayohati Buxoro amirligining so'nggi yillaridagi hayotini yevropaliklar nigohida gavdalantiruvchi muhim manba hisoblanadi.

Metodologiya. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy tahlil va germeneytika metodlaridan foydalanilgan. Rossiya imperatorlik siyosiy agentligining Mirzo Nasrullohbiy Qo'shbegiga yo'llagan 16 sentyabrdagi maktubi, Robert Gauthiotning 1913 yilda Pomir va Turkistonga qilgan ilmiy safari haqida fransuz tilidagi tarixiy hisoboti asosiy manba sifatida olindi.

Tahlil va natijalar. Robert Gauthiotning Buxoroga safari tasodifiy bo'lmagan. Fransiyaning Osiyo jamiyati (Société Asiatique) va Parij tilshunoslik jamiyati ko'magida tashkil etilgan ushbu ekspeditsiyaning asosiy maqsadi – Sharqiy Turkistondan topilgan qadimiy sug'd qo'lyozmalarini o'qish uchun tirik til namunalarini topish edi.

Olim o'z oldiga sug'd tili bilan bog'liq bo'lgan yag'nob tilini bevosita joyida o'rganish bo'yicha lingvistik qidiruv, Buxoro shahri va unga qarashli tumanlardagi aholining turmush tarzi, diniy marosimlari va ijtimoiy tarkibini kuzatish bo'yicha etnografik tahlil o'tkazish, Parij muzeylari va kutubxonalari uchun noyob qo'lyozmalar, kiyim-kechaklar va kundalik buyumlarni jamlash yani kolleksiya yig'ish kabi vazifalarni qo'ygan edi.

Shu bilan birga arxiv hujjatlari shuni ko'rsatadiki, bu ilmiy safarning zamirida nafaqat lingvistika, balki Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi o'rtasidagi murakkab diplomatik aloqalar ham yotibdi.

Arxivdan topilgan Buxorodagi Rossiya imperatorlik siyosiy agentligining Mirzo Nasrullohbiy Qo'shbegiga yo'llagan 16 sentyabrdagi maktubiga jamoatchilik e'tiborni qaratish maqolaning maqsadidir. Ma'lumki, Mirzo Nasrullohbiy Qo'shbegi (1860–1918) Buxoro amirligining bosh vaziri bo'lib, Amir Olimxon davrida davlat boshqaruvida muhim rol o'ynagan, yevropalik olimlar bilan muloqotda mulohazali arbob sifatida tanilgan. 1918 yilda fojiali tarzda qatl etilgan shaxsdir.

Fransiya elchixonasining rasmiy iltimosi bilan tayyorlangan bu hujjatda olimning amirlik hududida harakatlanishi uchun "Oliy saroy" (Sankt-Peterburg) kafolat bergan. Maktubda muhim

bir jihat bor: Qo‘shbegidan fransuz olimining qayerdaligi va ahvolini doimiy nazorat qilib turish so‘ralgan. Bu shuni anglatadiki, Gauthiot til o‘rganish bahonasida strategik muhim bo‘lgan Pomir chegaralariga yaqinlashar ekan, har bir qadami mahalliy ma‘muriyat tomonidan kuzatilgan.

Buxoro Qo‘shbegisi Mirzo Nasrullohbiy esa bu yerda olimning xavfsizligi va ilmiy missiyaning siyosiy chegaralarini belgilovchi asosiy shaxs sifatida namoyon bo‘ladi.

Gauthiot o‘z safarini 1913-yilning yozida boshladi. U Rossiya orqali Kaspiy dengizini kesib o‘tib, Krasnovodsk (hozirgi Turkmanboshi) portiga yetib keldi. U yerdan Kaspiy orti temir yo‘li orqali Buxoro amirligi hududiga kirdi.

Olim o‘z esdaliklarida Kogon (Yangi Buxoro) va Eski Buxoro o‘rtasidagi tafovutni mahorat bilan tasvirlaydi. Kogon rus amaldorlari va yevropacha uslubdagi binolar bilan to‘la bo‘lsa, Eski Buxoro devorlari ortida o‘rta asrlar muhiti saqlanib qolgan edi. Gauthiot Buxoro amiri Said Olimxon qabulida bo‘lib, o‘z tadqiqotlari uchun ruxsatnoma oladi.

Robert Gauthiotning 1913 yilda Pomir va Turkistonga qilgan ilmiy safari haqida fransuz tilidagi tarixiy hisoboti nashr etilgan. Hisobotda muallif “Fransiya Instituti (Yozuvlar va badiiy adabiyot akademiyasi) va Markaziy Osiyo hamda Uzoq Sharqni o‘rganish qo‘mitasi tomonidan zimmamga yuklatilgan missiya maxsus Turkistonga qaratilgan edi; avvalo, lingvistik (tilshunoslik), ikkinchi navbatda esa etnografik missiyaning umumiy maqsadi Zarafshon va Hisor tog‘laridagi eron lahjalarini o‘rganish, maxsus maqsadi esa yag‘nob tilini tadqiq qilish edi [1] deb yozadi.

Biroq, tayyorgarlik jarayoni oson kechmagan. Gauthiot “bir boshlovchi uchun karvon yig‘ish ancha qiyin bo‘ldi va men o‘z xatolarim uchun haq to‘ladim” deb yozganda, mahalliy byurokratik to‘siqlar va sharoitga moslashish qiyinchiliklarini nazarda tutgan.

Gauthiot o‘z hisobotida Samarqandda ikki marta to‘xtaganini yozadi. U yerda u nafaqat tojik tilining mahalliy lahjalarini o‘rgangan, balki mashhur arxeolog, Mirzo Ulug‘bek rasadxonasining qoldiqlarini topgan olim, Samarqandning qadimiy tarixi bo‘yicha noyob kolleksiyalar egasi, Vasiliy Lavrentyevich Vyatkin (1869–1932) bilan ham uchrashgan.

Bu ikki shaxsning suhbatini ramziy ma‘noga ega: biri tuproq ostidan So‘g‘d madaniyatining moddiy qoldiqlarini izlasa, ikkinchisi tog‘lar orasidan shu madaniyatning tirik ovozi qidirar edi. Gauthiot V.L.Vyatkinning xususiy kulolchilik kolleksiyasiga yuqori baho berib, ularni jahon ilmiy jamoatchiligiga tanitish zarurligini ta‘kidlaydi.

Hisobotlarga ko‘ra, ekspedisiya davomida jami 230 ga yaqin buyum yig‘ildi, ular mazkur hududlardagi tog‘li tojiklarning moddiy hayotini yetarlicha to‘liq aks ettiradi. Buyumlarni sotib olish, asosan, Basid qishlog‘idan boshlab butun Ro‘shon bo‘ylab olib borilgan.

Gauthiotning asosiy maqsadi - Yag‘nob vodiysi edi. U yerda u nemis olimi, Gisen universiteti professori, tilshunos Haynrix Yunker (1889–1970) hamrohligida tizimli tadqiqotlar olib bordi.

Hisobotlarda “ishimizning katta qismi birgalikda bajarildi; etnografiya va sosiologiyaga oid ko‘plab savollar hamkorlikda o‘rtaga tashlandi va muhokama qilindi, bunda har birimiz o‘zimizning nazariy yoki amaliy bilimlarimiz bilan ko‘maklashdik. Ayniqsa, ko‘plab so‘zlar, texnik terminlar va tilshunoslik nuqtayi nazaridan eng muhim iboralar har birimiz tomonimizdan alohida va mustaqil ravishda yozib borildi; so‘ngra qayta o‘qilib, solishtirildi va zarurat tug‘ilganda tuzatildi, deb ko‘rsatilgan.

Haynrix Yunker ma‘lumotlarni mustaqil ravishda qayd etgan.

Ular “Maison Pathé” kompaniyasi tomonidan taqdim etilgan fonograf (ovoz yozuvchi qurilma) yordamida mahalliy aholining nutqini muhrlab qoldirishdi. Gauthiotning eng katta kashfiyoti –yag‘nob tilining ikkita asosiy (sharqiy va g‘arbiy) va ikkita oraliq lahjaga bo‘linishini aniqlaganidir.

Olim yag‘nobliklar va tog‘lik tojiklarning madaniy yaqinligini ta‘kidlar ekan, Hisor tizmalarining shimolida yag‘nobcha joy nomlari ko‘pligini, janubida esa ular uchramasligini qayd etadi. Uning Vaxon tilini o‘rganishi va Afg‘oniston chegarasidagi vaziyatni kuzatishi esa missiyaning naqadar strategik bo‘lganidan dalolat beradi.

Hisobotlarda ko‘rsatib o‘tilganlardan tashqari, nikoh, qarindoshlik va meros urf-odatlarini ustidan bir qator kuzatuvlar olib borilgani, aholining diniy hayoti ham tadqiq qilindi, biroq bu ishlar o‘ziga xos yopiqlik va kirish qiyinligi bilan ajralib turuvchi shialik oqimlaridan biriga (ismoiliylikka) mansubligi hisobga olinib, alohida ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilgani, hamma joyda aholining turmush tarzi va madaniyatini aks ettiruvchi fotosuratlar olingani ta‘kidlangan.

Hisobotlarda ekspedisiya qisqa muddatli bo‘lganiga qaramay, u ancha material to‘pladi va ma‘lum bir nuqtayi nazardan aniq natijalarni berib ulgurgani. Shunday yo‘l bilan orttirilgan tajribadan kelajakda ham foydalanilishini hamda shunchalik uzoq safardan keyin o‘sha o‘lkada uzoqroq muddat qolish mutaxassislariga diniy va ijtimoiy hayot qirralari, Pomir odamlari va hodisalari bilan to‘liq tanishish, yangi ekspedisiya davomida ko‘proq material to‘plash hamda yanada kattaroq natijalarga erishish imkonini berishini tilab qolishgan.

Robert Gauthiotning tadqiqotlari Markaziy Osiyo tarixi va tilshunosligi uchun bebaho xazina bo‘lib qoldi. Biroq taqdir beshafqat edi: ushbu hisobotdan uch yil o‘tib, Gauthiot Birinchi jahon urushida halok bo‘ladi. Undan qolgan qo‘lyozmalar va fonograf yozuvlari Parij arxivlariga sochilgan bo‘lsa, Buxoro arxivlaridagi Qo‘shbegiga yozilgan maktublar uning missiyasi naqadar og‘ir siyosiy sharoitlarda kechganini eslatib turadi. Mirzo Nasrullohbiy va Robert Gauthiot – bu

ikki shaxsning taqdiri 1913 yilning bir kunida mintaqa tarixini saqlab qolish yo'lida kesishgan edi. Uning tadqiqotlarini keyinchalik shogirdlari va hamkasblari (masalan, Antuan Meye) nashr ettirgan.

Xulosa. Robert Gauthiotning 1913–1914 yillardagi Buxoro safari jahon sharqshunosligi uchun ulkan ahamiyatga ega. Olim Birinchi jahon urushida 1916-yilda vafot etgan bo'lsa-da, u qoldirgan qo'lyozmalar va qaydlar uning shogirdlari tomonidan nashr etildi.

Gauthiotning Buxoro haqidagi merosi bugungi kunda XX asr boshidagi Buxoro ijtimoiy qiyofasini o'rganishda, Sug'd va yag'nob tillari aloqasini tadqiq etishda, Markaziy Osiyo va Yevropa madaniy aloqalari tarixini yoritishda eng ishonchli manbalardan biri bo'lib qolmoqda. Uning "Buxoroi sharif"ga qilgan sayohati nafaqat bir olimning sarguzashti, balki G'arb va Sharq o'rtasidagi ilmiy muloqotning yorqin namunasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Gauthiot, R. (1914). Rapport sur une mission scientifique au Turkestan russe (1913). Journal Asiatique.
2. Meillet, A. (1921). Robert Gauthiot. In: Bibliographie des œuvres de Robert Gauthiot. Paris.
3. Масалиева О. (1999). История Бухарского, Хивинского и Кокандского ханств в англо-американской историографии XX века. – Ташкент.
4. Masalievva O. (2025). State administration and divans: terms and structure. International Journal of History and Political Sciences 5 (03), 40-43.
5. Masaliyeva O. (2024). Buxoro xonligi manbashunosligi hamda Vatan va xorijiy tarixshunosligining rivojlanish muammolari (XX – XXI asr boshlari) / Monografiya. – Toshkent: FAST SUPPORT AND RESULT, – 240 b.
6. O'zbekiston Milliy Arxivi. Buxoro amirligidagi Rossiya siyosiy agentligi fondi hujjatlari, 1913 yil sentyabr.
7. Junker, H. F. J. (1930). Arische Forschungen. Yagnobi-Studien. Leipzig.
8. Отчет профессора Р. Готю и И.И. Зарубина по командировке на Памир летом 1914 г. // Известия Русского Комитета для изучения Средней и Восточной Азии в историческом, археологическом, лингвистическом и этнографическом отношениях. Петроград, 1914. Серия II, № 3. С.79-84.